


## NAVOIY VILOYATIDA MADANIYAT

O'zbekiston madaniyati Sharqning eng yorqin va o'ziga xos madaniyatlaridan biridir. U ming yillar davomida shakllanib, zamonaviy O'zbekiston hududida turli vaqtlarda yashagan xalqlarning urf-odatlarini o'zida mujassamlashtirgan. Buyuk ipak yo'li xalqlar madaniyati, ularning urf-odatlari va san'atining birlashuviga hissa qo'shgan.



O'zbekiston madaniyati – teatrlar, muzeylar, kutubxonalar, kinoteatrlar, sirkalar, konsert zallari, madaniyat va istirohat bog'lari, botanika bog'lari, hayvonot bog'lari, madaniyat va aholi dam olish markazlari, madaniy meros ob'ektlari va boshqa.

## NAVOIY VILOYATIDAGI KUTUBXONALAR FAOLIYATI




2018 yilda Navoiy viloyatida kutubxonalar soni jami 101 ta bo'lib, shundan 71 tasi shahar joylarida 30 tasi esa qishloq joylarida joylashgan.

Kutubxona muassasalarining asosiy ko'rsatkichlarida 2005 – 2018 yillarda kutubxonalar soni 157 taga kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Kutubxona fondi 2005 – 2018 yillarda 2091,5 ming nusxadan 2069,0 ming nusxaga kamaygan. Kutubxona foydalanuvchilari esa 2005 – 2018 yillarda 227,0 ming kishidan 404,1 ming kishiga oshgan.

### **Kutubxona muassasalari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (2005-2018 yillar)**


	<i>O'lchov birligi</i>	2005y.	2010y.	2015y.	2018y.
<b>Kutubxona muassasalari soni</b>	<i>birlik</i>	258	104	102	101
<b>Kutubxona fondi</b>	<i>ming nusxa</i>	2091,5	2578,6	2174,5	2069,0
<b>Foydalanuvchilar soni</b>	<i>ming kishi</i>	227,0	342,3	380,5	404,1

## Kutubxona foydalanuvchilari soni dinamikasi (2005-2018 yillar)



2019 yil 1 yanvar holatiga kutubxona muassasalari soni 101 tani tashkil etadi: ulardan axborot-kutubxona markazlari 1 ta, umumta'lim muassasalaridagi axborot-resurs markazlari 41 ta, akademik litseylarda 4 ta, kasb-hunar kollejlarda 46 ta, oily ta'lim muassalarida 2 ta, boshqa tashkilot va muassasalarida 2 ta, ko'zi ojizlar uchun kutubxonalar 1 ta va boshqa kutubxonalar 4 ta.

## 2018 yilda Navoiy viloyatida kutubxona muassasalari soni, %



## NAVOIY VILOYATIDA MUZEYLAR


2018 yilda muzeylar soni 5 tani, muzeylarga qatnovlar soni 40,4 ming kishini tashkil etdi.

### Muzey faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (2005-2018 yillar)

	<i>O'lchov birligi</i>	2005y.	2010y.	2015y.	2018y.
<b>Muzeylar soni</b>	<i>birlik</i>	9	9	10	5
<b>Muzeyga tashrif buyuruvchilar</b>	<i>ming kishi</i>	402,0	78,3	112,7	40,4

2018 yilda muzeylar va muzeylarga tashrif buyuruvchilar sonida kamayish kuzatilmoqda, buning sababi eski muzeylarni yopilishi va qayta rekonstruksiya qilinishidir. Jami yil davomida 40,4 ming kishi tashrif buyuruvchilar sonidan 28,2 ming kishi o'quvchi va talabalar tashkil etgan, bu jami tashrif buyuruvchilarning 69,8 % tashkil etadi. Muzeylarda o'qilgan ma'ruzalar soni – 212 ta, ko'rgazmalar soni – 59 ta, muzeylar tomonidan tashkil etilgan ekskursiyalar soni – 2068 ta, ekskursiya tarzda qatnaganlar soni – 23,9 ming kishini tashkil etgan.

## 2018 yilda muzey fondlari eksponat turlari bo'yicha, %



Muzeylarda turli eksponatlar mavjud. Muzey eksponat fondlari 17595 tani tashkil etadi, shulardan: 25 ta haykaltaroshlik buyumlari, 187 ta rassomlik, 2702 ta numizmatika, 1438 ta maishiy va etnografiya buyumlari, 53 ta grafika, 1096 ta amaliy san'at buyumlari, 3729 ta suratlar, 1279 ta arxeologiya buyumlari, 1481 ta hujjatlar, 5605 ta boshqa eksponatlar.

## NAVOIY VILOYATIDA KONSERT TASHKILOTLARI JAMOALARI



2018 yilda konsert tashkilotlari tomonidan 207 ta konsertlar tashkil etilgan, ularda 106,4 ming kishi tinglovchiga xizmat ko'rsatilgan.

### Navoiy viloyatida 2017-2018 yillarda konsert tashkilotlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

	<i>O'lchov birligi</i>	<b>2017 y.</b>	<b>2018 y.</b>
<b>Konsert tashkilotlari soni</b>	<i>birlik</i>	1	2
<b>Konsertlar soni</b>	<i>birlik</i>	102	207
<b>Xizmat ko'rsatilgan tinglovchilar</b>	<i>ming kishi</i>	51,0	106,4



## NAVOIY VILOYATIDA MADANIYAT VA ISTIROHAT BOG'LARI

2018 yil viloyatimizda madaniyat va istirohat bog'lari soni 10 tani tashkil etdi, umumiy maydoni 86,3 gektar. Viloyatning har bir shahar va tumanlarida madaniyat va istirohat bog'lari mavjud bo'lib, ulardan Navoiy shahrida joylashgan "Alisher Navoiy" nomli markaziy madaniyat va istirohat bog'i 39 gektar maydonni egallaydi. Madaniyat va istirohat bog'larida dam olish o'bektlari soni – 48 ta, attraksionlar soni 95 tani tashkil etadi.

### Navoiy viloyatida 2018 yilda madaniyat va istirohat bog'larining asosiy ko'rsatkichlari, birlik

	Madaniyat va istirohat bog'lari soni	Dam olish o'bektlari soni	Attraksionlar soni
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>10</b>	<b>48</b>	<b>95</b>
<i>shaharlar:</i>			
Navoiy	1	22	30
Zarafshon	1	3	11
<i>tumanlar:</i>			
Konimex	1	-	-
Qiziltepa	1	6	5
Navbahor	1	1	2
Karmana	1	3	11
Nurota	1	5	6
Tomdi	1	-	-
Ushquduq	1	-	6
Xatirchi	1	8	24

## **NAVOIY VILOYATIDA MADANIYAT VA AHOLI DAM OLISH MARKAZLARI**

Madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyatiga ommaviy madaniy-ma'rifiy va sport tadbirlari mavzuli, adabiy-badiiy kechalar, teatrlashtirilgan tomoshalar va xalq sayllari, konsertlar tashkil etish kiradi.

### **2018 yilda madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari**

	<b>Muassasalarning umumiy soni, birlik</b>	<b>Jami o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar, birlik</b>	<b>Madaniy-ma'rifiy tadbirlarlarda ishtirok etganlar, ming kishi</b>
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>32</b>	<b>2857</b>	<b>875,7</b>
shaharlar:			
Navoiy	1	283	135,8
Zarafshon	1	175	65,6
tumanlar:			
Konimex	3	191	27,8
Qiziltepa	5	280	124,6
Navbahor	6	298	98,2
Karmana	5	393	71,2
Nurota	3	626	241,0
Tomdi	1	160	25,9
Uchquduq	1	156	19,6
Xatirchi	6	295	66,0

Jami o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar soni 2857 tani tashkil etdi, ulardan ommaviy madaniy-ma'rifiy va sport tadbirlari 38,0 % (1085 ta), mavzuli va adabiy-badiiy kechalar 26,3 % (751 ta), teatrlashtirilgan tomoshalar va xalq sayllari 8,0 % (227 ta), konsertlar 27,3 % (780 ta) ni tashkil etadi. Madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etganlar 875,7 ming kishini tashkil etdi.

*Navoiy viloyati statistika boshqarmasi  
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi*